

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVI ORGANLARIDA ISH YURITISH VA IJRO NAZORATINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI JORIY ETISH MASALALARI

Jo'ravev Javlonbek Norboboyevich

*Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi
mail: javlon-juraev@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida qabul qilinayotgan hujjatlarning ular faoliyatidagi ahamiyati, ularning turlari va hujjatlarga qo'yiladigan talablar bo'yicha tushunchalar, o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Bundan tashqari, normativ hujjatlarning ijrosi bo'yicha hisobdorlikni tashkil qilishning ahamiyati, ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan hujjatlar, faoliyatdagi muammo va kamchiliklar, shuningdek, ayrim turdag'i mayjud muammo va kamchiliklarni bartaraf yetish bo'yicha bir kator takliflar, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi hamda milliy qonunchiligidan farqli hamda o'xshash tomonlari, shuningdek, ushbu faoliyatni takomilashtirish yo'nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijro intizomi, normativ hujjat, "Ijro.gov.uz" subektlar, moddiy resurslar, ijrochilarining manfatlari, ijrochilarni tanlash, yagona elektron tizim, elektron raqamli imzo.

Qonunlarga qat'iy rioya qilish O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy va ma'rifiy, umuman olganda jamiyatning barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishga imkon beradi. Qonunning kuchi, obro'si, ta'siri, amaliy ahamiyati hayotda uning odilona tatbiq etilishidadir.

Har qanday hujjat loyihasini tayyorlash
va qabul qilish borasida bajarilgan ishlardan so'ng boshqaruv sub'ekti uning ijrosini tashkil qilish bo'yicha har tomonlama
va murakkab ishni amalaga oshirishi kerak.

Normativ hujjat ijrosini tashkil qilish qabul qilingan hujjatni muqarrar, aniq va o'z vaqtida hayotga joriy etishga qaratilgan boshqaruv siklining asosiy bosqichi hisoblanadi.

"Qonun ijrosi bilan kuchli" degan iboraga urg'u beradigan bo'lsak, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida qonunchilik hujjatlarini ijro etishda halollik, adolat asosida ish yuritish mutasaddilar uchun asosiy maqsad hisoblanib, jamiyat, xalq va Vatan oldidagi buyuk insoniy burch hamda yuksak mas'uliyat bo'lmog'i lozim.

Davlat boshqaruvi organlarida qonunchilik hujjatlari
va topshiriqlarning ijro etilishini "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy

hujjatlar to'g'risida" 2021 yil 20 apreldagi O'RQ-682-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldag'i "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6166-son Farmoni hamda 2021 yil 31 maydag'i "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5132-son Qaroriga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldag'i PF-6166-son Farmoni bilan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy qilindi. Yangi tizimning samaradorligi o'z navbatida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi nazorat olib boriladigan "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq. Idoralararo hujjat aylanish tizimi "Ijro.gov.uz" Ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi negizida ishlab chiqilgan bo'lib, tashkilotda elektron ish yuritishga yordam beradi.

Tizim imkoniyatlari:

1. Ma'lumotlarni saqlanish tartibi. Elektron arxivda hujjatlarni markazlashtirilgan, turkumlashtirgan

va tizimlashtirilgan holatda saqlanishi.

2. Xarajatlarning qisqarishi. Qog'oz hujjatlarni chop etish, pochta jo'natish va saqlash xarajatlarini kamaytirish.

3. Tizimning umumiyligi. Hujjatni shakllantirish va qayta ishslash (ro'yxatga olish, tasdiqlash va boshqalar) tartiblariga yagona yondashuv.

4. Vaqt tejalishi:

a) hujjatlarni yetkazib berish, rasmiylashtirish va kelishish vaqtini qisqartirish;

b) hujjatlarni tez imzolanishi.

5. 24/7.

Onlayn rejimda hujjatlar bilan har qanday amallarni: qidirish, yuklab olish, chop etish, tekshirish, rad etish, shuningdek ularning harakatini kuzatish imkoniyatlaridan uzlusiz foydalanish mumkin.

6. Qidirish.

Hujjatlar qidiruvining tezkorligi. Ushbu platformaning yana bir qancha afzallikkarga ega bo'lib, har bir hujjat elektron raqamlı imzo orqali tasdiqlanadi.

Ma'lumot uchun: elektron raqamlı imzo (ERI) - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamlı imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamlı imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamlı imzo yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

Ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solishning samarasi va unumdorligi ko'p jihatdan huquqni to'g'ri amalga oshirishga bog'liq. Agar huquq tadbiq etilmasa, insonlar hatti harakatida o'zining mujassam ifodasini topmasa ijtimoiy tartibga soluvchi vosita sifatidagi qiymatini yo'qotadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki qonunlarning qadriyati sifatidagi mantig'i –uning insonlarning ongi va irodasiga tasir o'tkaza olish qobiliyatidadir.

Aynan shu narsa qonunning harakatlanishi masalasini dolzarb mavzuga aylantiradi. Qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etishda ijrochilar o'zlarining burchlari va masuliyatiga odilona yondashib Vatan, davlat manfati va xalq taqdirini o'zlar uchun oliy maqsad deb hisoblab, qabul qilingan boshqaruv qarorlarni turmushda adolatli qo'llasalar bundan davlat va jamiyat hamda xalq ham naf ko'radi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev takidlaganidek, "Asosiy masala-qonunlarning mazmun mohiyatini xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir.

Boshqaruv qarorlarini ijrosini tashkil qilish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xodimlarining oldida turgan maqsadlarga erishilishini, ularning zimmasidagi vazifa va funktsiyalarini samarali amalga oshirilishini belgilab beradi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish yuqorida ko'rsatib o'tilgan normativ hujjatlardan tashqari quyidagilar bilan, xususan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi 2017 yil 7 sentyabrdagi O'RQ-443-sun qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil

9 avgustdagagi F-5017-sun farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 1999 yil 12 yanvardagi 12-sun, "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 1999 yil 29 martdagagi 140-sun, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qoidalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rish to'g'risida"gi 2015 yil 6 noyabrdagi 320-sun hamda "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2017 yil 30 oktyabrdagi 881-sun qarorlari bilan tartibga solingan.

Bulardan tashqari boshqaruv subektlari tashkiliy ishlarni zarur darajada bo'lishini taminlash maqsadida hujjatlar ijrosini tashkil qilishga qo'yiladigan bir qator talablarga riousha etishlari kerak. Ushbu talablarning asosiyları quyidagilardan iborat:

– hujjatlar ijrosini tashkil qilishning ma'muriy va ilmiy usullarini birlashtirish –ushbu talab boshqaruvning ilmiy

va ma'muriy usullari o'zaro chambarchas bog'liqligini va ularning ilmiy asoslanganligi bilan bog'liqligini aks ettiradi;

– hujjtlar ijrosini tashkil qilishning samaradorligi

va maqbulligi bu – davlat boshqaruvi oaganlari markaziy apparatlari va mas'ul xodimlarining imkoniyatlaridan eng kam vaqt va moddiy resurslarni sarflagan holda erishadigan qilib foydalanish orqali taminlashdir;

– hujjat ijrosini bajarishga tashabbus va masuliyat bilan yondashish bu – ularning ijrosini ta'minlash jarayonida rahbarlar

va boshqa xodimlarning tashabbuskorligi hamda mas'uliyatini, shaxsiy intizomini uyg'unlashtirish orqali amalga oshirish;

– tashkiliy ishning aniqligi va uning mohiyati rahbarning ijrochilar uchun vazifalarni aniq va tushunarli ifodalashda, hujjat ijrosini ta'minlashni, uni bajarishning aniq yo'llari, vositalari

va usullari, shuningdek aniq muddatlarini belgilashdan iboratligida namoyon bo'ladi;

– ijrochilar mehnati va ish faoliyatini rag'batlantirish-ushbu talab xodimlarning hujjat bilan belgilangan vazifalar va qo'yilgan maqsadlarga erishishdan manfaatdorligi hamda mas'uliyatini ko'tarish uchun zarur sharoitlar yaratish orqali ta'minlanadi.

Har qanday qonunchilik hujjati ijrosini tashkil qilish bosqichi quyidagi to'rtta umumiy elementni o'z ichiga oladi:

-ijrochilarini tanlash;

-ijrochilar faoliyati uchun kerakli va zarur sharoitlarni taminlash;

-ijroni nazorat qilish, tuzatishlar kiritish va tartibga solish;

-qaror ijrosining yakunlarini chiqarish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qaerda qonun xukmronlik qilsa shu yerda erkinlik bo'ladi deganlaridek, jamiyatda qabul qilinayotgan qonunlar va normativ hujjatlarni xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish har birimizning asosiy vazifamiz bo'lishi lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev aytganidek, 100 ta emas, 5 ta qonun qabul qilaylik, lekin xalqchil bo'lsin, xalqimizga xizmat qilsin degan so'zlari ham bejizga emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi Qonun, <https://lex.uz/docs/-5378966>

2. Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida, <https://lex.uz/docs/-3329163>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6166-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5279413>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5132-son Qarori, <https://lex.uz/docs/-5439350>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 9 avgustdagi F-5017-son farmoyishi.

6. Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999 yil 12 yanvardagi 12-son qarori, <https://lex.uz/docs/262832>.

7. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 1999 yil 29 martdagi 140-son qarori, <https://lex.uz/docs/863120>.

8. Vazirlar Mahkamasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qoidalarini amalga oshirishga yo’naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ko‘rish to‘g‘risida”gi 2015 yil 6 noyabrdagi 320-son qarori, <https://lex.uz/docs/-2809591>.

9. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qo‘sishchalar kiritish haqida”gi 2017 yil 30 oktyabrdagi 881-son qarori, <https://lex.uz/docs/3397655>.